

IJODDAGI IQROR QILISH SAN'ATI

*Jumayeva Gulnoza Uyg'un qizi**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) ta'lim yo'nalishi I kurs magistranti***Anotatsiya**

Biz ko'pincha ro'znomalarda, ilmiy jurnallarda "bugungi o'zbek adabiyoti", "koreys adabiyotida", "ingliz adabiyotidagi o'zgarishlar" kabi adabiyot xususiylashtirilgan maqolalarga duch kelamiz. Aslida esa adabiyotning umumiy vazifasi mavjud bo'lib, u Inson qiyofasini, tuyg'ularini yoritishdan iborat. Lekin, asarlarda tasvirlangan obrazlar turlicha bo'ladi. Sababi, inson eng ko'p o'rganishga qiynalgani ham shu mavzu, Insondir. O'zi anglagan chizgilarini bugun o'quvchiga mohirona chizib berayotgan ijodkorlardan biri, "Kechikayotkan odam", "Pakananing oshiq ko'ngli" qissalari, "Shovqin" romani va bir necha kinosenariylar muallifi Erkin A'zamdir. Uning asarlarida ikki asr, ikki davr, ikki xil muhitning sinov va darslarini o'rgangan yurak va aqlning kuchi bor. . Indamas, jim, kuzatuvchi, voqeaga keskin javob bermaydigan obrazlar tilida xanjardek keskir piching-u, kinoyalar va o'tkir, achchiq va inkor qilib bo'lmas iqrorlar bor. Har bir inson ichida o'zigagina ma'lum qiyofasi mavjud. Ijodkorning "Ta'ziya" hikoyasi tahlili davomida o'quvchi jami insoniyatga xos bir xarakterga to'liq amin bo'ladi. Hikoyada inson ruhiyatining ko'p hollarda e'tiborsiz qoldiriladigan ammo, har bir insonga xos bo'lgan umuminsoniy bir tushunchaning, har bir inson hayotida bir marta bo'lsa ham yashab ko'radigan tuyg'uning chizilgan tasviri bor. Hikoya mavzusida zamon ta'siri haqida bo'lsada, mohiyat zamon ham, makon ham tanlamaydigan ma'noga ega.

Kalit so'zlar: do'ppi, janoza, kommunistik partiya, qo'rqqoq, laqab, jiguli, muxbir, g'azal, namoz

Biz ko'pincha ro'znomalarda, ilmiy jurnallarda "bugungi o'zbek adabiyoti", "koreys adabiyotida", "ingliz adabiyotidagi o'zgarishlar" kabi adabiyot xususiylashtirilgan maqolalarga duch kelamiz. Aslida esa adabiyotning umumiy vazifasi mavjud bo'lib, u Inson qiyofasini, tuyg'ularini yoritishdan iborat. Bu bilan adabiyotni hudud yo millatga bo'lib o'rganish xato degan fikrdan yiroqmiz. Faqatgina, bu uslubdagi o'rganish orqali turli dunyoqarash ammo yagona istak bilan yashayotgan odamlar hayotini qiyoslaymiz, asl adabiyot esa insonga xos jami tuyg'ularni tasvirlaydi degan qo'shimchani kiritmoqchimiz, xolos. Umumiy inson qiyofasi asli qanday, yashamoqning ma'nosi nimada kabi savollar adabiyotning o'lmas savoli. Unda ijod qilayotgan ijodkorlar, hoh yozuvchi, hoh shoir va yo dramaturg bo'lishidan qat'iy nazar asarlarida yagona inson portretini chizadi. Lekin, asarlarda tasvirlangan obrazlar

turli xil. Yagona inson qiyofasi bo'lsa buncha farq-u tafovut sababi nimada deyilsa, har bir ijodkor o'zi anglagan haqiqat orqaligina tasvirlaydi. Har kimning anglagani esa hamin qadar farqlanadi. Bir sinfda dars o'tilib, o'quvchilar turlicha anglagani kabi har bir ijodkorning ham Ko'hna Dundan olgan darsi, taassuroti turlicha bo'ladi. O'zi anglagan chizgilarini bugun o'quvchiga mohirona chizib berayotgan ijodkorlardan biri "Kechikayotkan odam", "Pakananing oshiq ko'ngli" qissalari, "Shovqin" romani, o'z tiliga ega hikoyalar va bir necha kinosenariylar muallifi Erkin A'zamdir.

Erkin A'zam baquvvat yozuvchi. Uning asarlarida ikki asr, ikki davr, ikki xil muhitning sinov va darslarini o'rgangan yurak va aqlning kuchi bor. Shu sabab uning asarlarini to'liq anglash uchun unga loyiq o'quvchi bo'lish kerak. Indamas, jim, kuzatuvchi, voqeaga keskin javob bermaydigan obrazlar tilida xanjardek keskir piching-u, kinoyalarda bor. Ammo xalqimizda "gap yuqmaydi" qabilidagi ajoyib ibora bor. Ya'ni gapni hamma ham tushunavermaydi, yo atayin tushunmaganga oladi ma'nosida. Har doim ham asar o'qish jarayonida ijodkor bilan suhbatga kirishilavermaydi. Erkin A'zam asarlarida ozgina diqqatni chalg'itsangiz bas, aytilgan gapning shunchakiga aytilmaganini anglamadingizmi, bilishni hohlaganingizni o'qiysiz-u, bilishingiz kerak bo'lganidan quruq qolasiz. Keyin asar haqida xulosa qilganingizda Farmon bibi tili bilan aytganda "chog'i kam" dek tuyuladi. Insonning xulosa qilishi shunday, bir ko'rib, bir marta eshtib xulosalab ketaveradi. Bir kuni haqiqat shartta o'rtaga chiqib qolganida odam o'z o'ylaganlaridan o'z vijdoni oldida mulzam bo'lib qoladi. Birgina ijodkorning "Ta'ziya" hikoyasidagi Salim Qaror obraziga qaraylik. Ijodkorning o'zi bu hikoya boshlanishida quyidagicha ilova qiladi: "Ushbu hikoyaning dastlabki nomi «Do'ppi» edi. Shunday she'ri borligini eslabmi, uni Muhammad Yusufga bag'ishlamoqchi bo'ldim. Asarning sarlavhasi o'zgargach esa, shoir nomi bilan yonma-yon turishi xunukroq tuyulib, fikrimdan qaytdim..." Shu jumalarning o'zidan o'quvchi taraddudlanadi. Mavzu nima ekanligi haqidagi ilk fikrlar bilan o'qishni boshlaydi lekin, qarasaki gap milliylik haqqi-yu, a'za tadbiri haqida emas. Voqea jurnalist yigitning shahardan uyda kelishi qishloqdagi baravar to'rt janozaga to'g'ri kelib qolgani-yu, janozaga kiyib borish uchun uyda bitta do'ppi topilmaganligi ustida o'sha yigit tilidan boshlanadi. O'zbekning uyida do'ppi bo'lmas ekanmi? Qahramonning onasi uydagi do'ppilarning hammasini kichik o'g'lining do'stlari kelganida bittadan janozaga kiyib ketib qaytarishmaganidan zorlanadi. Eski, ijodkor tilida chiroyli qilib "nimdoshroq" deya ta'riflangan do'ppi bir paytlar odamning musulmon yo kofir ekanini bildirgani, asli iymonga dahli yo'q bu "do'ppi jonivorning" ham pisandi qolmay, na yaxshi na yomon kunda kiyilmay qo'ygani haqida gap ketadi. Shu joyda ijodkor qiziq bir fikr bilan o'quvchini o'ylantirib qo'yadi: Arablarning o'zi hech do'ppi kiymagan-u bir do'ppi kiyib mullalikni da'vo qilishlari haqida qishloqning savodsiz onasi tilidan bir jumla beradida, bu mavzu mulohazasini o'quvchining o'ziga qoldirib so'zida davom etadi. To'rt janozadan biri yuqorida aytilgan Salim Qarorning

janozasi bo‘lib o‘zining kommunistik partiya qarorlariga vafodorligi bilan shu laqabni orttirgan odam ekanligihaqidagi fikrlar bilan qahramonni o‘quvchiga tanishtiradi. Asar qahramoni otasi bilan eski "Jiguli" moshinalarida a‘zaga ketib borishar ekan, otasi marhumni "ustozing" deya eslaydi. Sababi, yigit Toshkentdan muxbir bo‘lib kelganida, gazetada bosh muharrir shu odam bo‘lib, sevgi, ishqni qo‘yib, dalaga go‘ng tashlangani-yu,xas-xashak haqida yozish kerakligi, hayot sevgidangina iborat emasligini o‘rgatgan odam ayni shu edi. Yigit yo‘l bo‘yi o‘sha xotiralarni eslar ekan, shu odam sabab muxbirlikni tanlaganiga pushaymon bo‘lganligi, "jonajon kommunistik partiyamiz" deya maqtashdan nariga o‘tolmaydigan bu odam bilan ishlab ijod qilib bo‘lmasligini tushunganligi, Salim Qaror deyilmish bu kimsaning yigitning she‘r yozishini bilib «Biz ham yoshlikda yozar edik. Biz g‘azal mashq qilar edik. Qofiyasini to‘g‘ri keltirolmay, bu yoqqa o‘tib ketdik-da. Otangizdan so‘rang»- deya, maqtanib qo‘yganini eslaydi. Otasi ham marhumning: «O‘n to‘rt yoshimdan marksistman», deya g‘ururlanib yurishi-yu, hukumatning haqqiga hech xiyonat qilmagani, shuning orqasidan hukumatda egallamagan lavozimi qolmay qancha ishda ishlab chiqqanini haqidagi gaplarini eshtib boradi. Ta‘ziyaxonaga borishgandan keyingi tasvir juda ochiq, sodda va xalqona. O‘zbekning a‘zasiyam boshqacha emasmi? Na dinga to‘liq mos keladi, na urfga. Hikoyaning shu qismida o‘zbekning ta‘ziyadagi rasmi to‘liq chizilgan. Chizilgandayam, o‘qigan o‘quvchining o‘zi shundayligini tan oladigan aniq dalillar bilan chizilgan. Ta‘ziya xonaga borishgach, marhum yaqinlarining kelganlardan avvalgilargayam, keyin keladiganlar-u endi kelganlargayam aytilishi shart deb hisoblaydigan marhumning qanaqa vaziyatda o‘lganligi haqida hikoyani erinmay so‘zlab berishi, hovliga sim tortilib marhumning kiyimlari ilib qo‘yilishi, o‘tganning haqqiga duo qilish uchun yig‘ilganlarning suhbatni g‘iybatga aylantirib yuborish jarayonini shunday dalillar bilan yozadiki, e‘tiqotdagi bid‘atga yaqin hech bir jihatni o‘quvchi inkor qila olmaydi. A‘zadagi gap orasida marhumning xotirasi "qizilroq edi"- degan xijolatomuz gap bilan, kommunistik partiyaga xizmat qilgani, umrida do‘ppi kiymagani, kiyimlari orasigayam do‘ppi nomiga ilib qo‘yilgani haqida gapiriladi. Hikoya boshidan to ta‘ziyadan chiqib ketishgunicha o‘quvchi Salim Qarorni tuzumning malayi deb taniydi. Bu haqda hikoya qiluvchi qahramon ham : "Boya shu odamni e‘tiqodli edi, deb ta‘rifladik, ota. Menimcha, u bor-yo‘gi oddiygina qo‘rqoq bo‘lgan, xolos".- deya ta‘rif beradi. O‘zining ishlab yurgan paytida Salim Qarorning yashirincha namoz o‘qiyotganligi ustidan chiqib qolgani, yigitni ko‘rib darrov joynamozni yig‘ib otib, bel og‘rig‘ini bahona qilganini eslab, iymonidan uyalgan marhumdan nafratlanib qo‘yadi. Lekin, hikoya so‘ngida yozuvchi o‘quvchiga shunday bir sirni ochadiki, o‘quvchi qaror qilishga nechog‘lik shoshganini anglaydi. Eshtganga tugul, ko‘rganga ham doim ishonib bo‘lmasligini, toshbaqada tosh bor deyishdan avval shu toshni u nima maqsadda ko‘tarib yurishi haqida mulohaza qilib, so‘ng xulosalash kerakligini isbotlaydi. Ya‘ni hikoya so‘ngida o‘g‘lining marhum haqida "jur‘atsiz",

“laganbardor” va “qo‘rqoq” bo‘lgani borasidagi gaplarini eshtgan ota, bu ta’nalarning rostligiga iqrор bo‘lib, nega shunday bo‘lgani haqida: "Stalin zamonida yurak oldirib qo‘ygani rost. Uni Termiz turmasida bir hafta kigizga o‘rab jabrlaganlar".- deya "kigiz jazosi" degan jazo bo‘lganligi, bu haqida marhumning o‘zi bir zamonlar birga ishlashganida yig‘lab aytib berganligi, eng alam qilgani binoyidek shoir, yozganlarida ma’no bor, ajoyib narsalar ijodkori bo‘lgan yosh yigitning shuncha azobni birgina Stalin nomiga betayin qofiya qilgani uchun tortganini aytib beradi. Asarning kulminatsiya qismi ham shunda. Hammasi to‘g‘ri edi, o‘zi bilgan, tanigan bir tuzumning quli bo‘lgan odam haqida, bir umr "jonajon kommunistik partiyam" deya o‘zini ham boshqalarni ham aldab, umrini shu yolg‘onga boy bergan odam haqida gapirib kelayotgan yigit, shu joyda xotiralari orasidan Salim Qarorning: "Biz ham yoshlikda yozar edik. Biz g‘azal mashq qilar edik. Qofiyasini to‘g‘ri keltirolmay,.. " deb qilgan hasratini eslaydi. Xayol-u, fikrida butun bir po‘rtana ro‘y beradi va asar shu joyida yakunlanadi.

Birgina qismat, bittagina odam haqida yillar davomida shakllangan fikrning bittagina gap orqali qanchalik tez o‘zgarishini his qildiradi yozuvchi. Hikoya 1991-yilda e‘lon qilingan bo‘lib, hali o‘quvchiga "partiya", "kommunizm" kabi so‘zlar begona bo‘lib ulgurmagan zamon edi. Hikoyani o‘qib, yillar davomida ishonilgan yo ishongan kabi ko‘rsatilgan yolg‘onga tikilib, uvol ketgan umrlar, balandparvoz ro‘yolarga manqurt kabi ergashgan odamlar qismati tasvirini ko‘rish mumkin. Hikoyachi tilidan aniq bo‘lmasada o‘quvchini ergashtiradigan g‘oya bo‘lib, hikoya so‘ngida o‘quvchi ham qahramon bilan birga dovdirab qoladi. Garchi bugungi kunda bu so‘zlar bu qarashlar, aytilaverib siyqasi chiqqan, ko‘p takrorlangan gaplar sifatida qaralsa ham, asar o‘z qiymatini zarracha yo‘qotmaydi. Nima uchunki, asar bosh g‘oyasi kommunistlik ham, qo‘rqoqlik ham emas. Asarda inson doim yanglishadigan umuminsoniy xususiyat bor. Bu boshqalarni baholash xususiyati. Bekorga yoshi ulug‘larimiz " yomon dema, avval nega shu yomonlikni qilganini bil"- deya ta’kidlashmasligi haqidag yana bir iqrор qiladigan voqea. Hikoyada inson ruhiyatining ko‘p hollarda e‘tiborsiz qoldiriladigan ammo, har bir insonga xos bo‘lgan umuminsoniy bir tushunchaning, har bir inson hayotida bir marta bo‘lsa ham yashab ko‘radigan tuyg‘uning chizilgan tasviri bor. Ijodkor, erkin A‘zamning mahorati ham shunda, odamga tanish ammo ko‘p hollarda tan olinmaydigan, his qilib aytilmaydigan o‘z- o‘zidan xijolat bo‘lish, jur‘atsizligidan ezilib yashash, hammaga tutib yurgan niqobi ostidagi hech kimga noma‘lum ahvoli, negaligi va qanday bo‘lganini hamma bir kun yashaydigan , duch keladigan vaziyat orqali anglatilgan. Hikoya mavzusida zamon ta’siri haqida bo‘lsada, mohiyat zamon ham, makon ham tanlamaydigan ma’noga ega.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <https://ilmlar.uz/erkin-azam-tomonidan-yozilgan-hikoya-va-qissalar>
2. https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/azam_erkin
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/erkin-azam-adabiyot-haqida>
4. Erkin A'zam. Jannat o'za qaydadir: hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asarlar. -T.: Sharq,2007.
5. Erkin A'zam badiiy olami: ilmiy maqolalar va suhbatlar toplami, -T.: Turon zamin ziyo,2014.